



ICHKI ISHLAR ORGANLARI TEZKOR BO'LINMALARI TOMONIDAN GIYOHVANDLIK VOSITALARI, ULARNING ANALOGLARI YOKI PSIXOTROP MODDALARNING NOQONUNYI AYLANISHI BILAN BOG'LIQ JINOYATLARGA QARSHI KURASHISH FAOLIYATI ISTIQBOLLARI

Adilov Mirsamad Agzamovich

O'zbekiston Respublikasi IIV

Akademiyasi katta o'qituvchisi

Mamatmuradov Doston Sherali o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV

Akademiyasi 3-bosqich kursanti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11353026>

Annotatsiya: Bugungi kunda jamiyatimizda, O'zbekiston Respublikasi giyohvand moddalarining noqonuniy aylanishiga qarshi kurash bo'yicha xalqaro hamjamiyat oldidagi o'z majburiyatlarini to'laqonli bajarishiga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Mazkur maqolada giyohvandlik, uning salbiy oqibatlari, giyohvandlik balosiga qarshi kurashishda yurtimizda ishlab chiqilgan mustahkam huquqiy asoslar atroflicha yoritilgan.

Kalit so'zlar: giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, xalqaro hamjamiyat, noqonuniy aylanma, salbiy oqibatlar, iqtisodiy asoratlar, ma'naviy asoratlar.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi 1995- yil fevral oyida Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1961-yildagi "Narkotik moddalar to'g'risida"gi Yagona Konvensiyasi, 1971-yildagi "Psixotrop moddalar to'g'risida"gi hamda 1988-yildagi "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilishga qarshi kurash to'g'risida"gi Konvensiyalariga a'zo bo'lgan. 1999-yilda O'zbekiston Respublikasining "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida"gi Qonuni qabul qilingan bo'lib, mazkur qonunga muvofiq giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan qonunga zid ravishda muomalada bo'lishning har qanday ko'rinishlariga qarshi jinoiy javobgarlik belgilangan. Mamlakatimizda giyohvand moddalar savdosi va iste'moliga qarshi keskin choralar ko'rilayotgan bo'lsa-da, bugun giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanishi eng xatarli va dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.¹ Giyohfurushlar yangi usul va nayranglarni qo'llab, zahri qotilni sotish harakatlarini davom ettirishmoqda.

¹ Якубов, Х.Ш. (2023). Психологические особенности оперативно-розыскного мероприятия «опрос». *образование наука и инновационные идеи в мире*, 25(2), 45-48.



Ular manfur maqsadlarini amalga oshirish yo'lida hali dunyoqarashi shakllanmagan, o'zgalar ta'siriga tushib qolishga moyil yoshlar umriga zomin bo'lishmoqda. O'zbekistonda huquqni muhofaza qilish idoralari bilan hamkorlikda bojxona organlari tomonidan ham transmilliy narkoguruhlarining qonunga zid faoliyatini aniqlash va chek qo'yish, kontrabanda kanallarini yopish, giyohvand o'simliklar maydonlarini yo'q qilish va giyohvandlik illati yoyilishining oldini olish bo'yicha maxsus kompleks operatsiyalar muntazam ravishda amalga oshirilmoqda. O'ylamay bosilgan qadam ko'p hollarda afsus-nadomatga sabab bo'ladi. Nega deganda, tavakkalchilik hamisha ham muvaffaqiyatga yetaklayvermaydi. Aholi orasida muntazam olib borilayotgan profilaktik targ'ibot va tushuntirish ishlariga qaramasdan, hududlarda huquqbuzarlik va jinoyatlar soni kamaymayapti².

Afsuski, tavakkalchilikni xush ko'radigan ayrim nopok kimsalar o'z g'araz maqsadlarini amalga oshirish uchun har qanday razillikdan tap tortmaydi. Giyohvandlik butun dunyoda keng jamoatchilikni tashvishga solayotgan eng dolzarb muammolardan hisoblanadi. Zero, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan qonunga xilof ravishda muomala qilish bilan bog'liq jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasi juda yuqori. Narkotik va psixotrop moddalarni iste'mol qilishning ortishi birinchi o'rinda og'ir kasalliklar va jinoyatlar sodir etilishining ko'payishiga olib keladi. Giyohvandlik - jinoyatchilik bilan bog'liq hodisa. Birinchidan, narkotiklarni qo'lga kiritish yoki ularning oldini olish uchun pul topish maqsadida og'ir oqibatli qasddan jinoyatlar sodir etiladi. Ikkinchidan, narkotik moddalarni qabul qilish ta'siri ostida tez-tez jinoyatlar sodir etiladi. Giyohvandlik bilan jinoyatchilik o'rtasidagi bog'liqlik giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanishi oqibatida yuzaga keladigan huquqbuzarlik harakatlarining sodir etilishida namoyon bo'ladi³.

Bugungi globallashuv jarayonida turli fan-texnika, iqtisod sohalarida keskin o'zgarishlar ro'y bermoqda va bu o'zgarishlar insonlarning zamon talablariga mos ravishda bilim va ko'nikmalarini shakllantirishlariga, o'z ustilarida yanada ko'proq ishlashlariga undamoqda. Kimdir savdo sohasida, kimdir IT sohasida, kimdir fantexnika sohasida va yana kimlardir davlat xizmatlarida turli yo'nalishlarda o'z faoliyatlarini olib bormoqdalar. Barchamizga ma'lumki qayerda rivojlanish bo'lsa, o'sha yerda jinoyatchilik ham rivojlanib

² Ashurov, O. (2024). Voyaga yetmaganlar orasida giyohvandlikka qarshi kurashishning dolzarb ahamiyati. *Академические исследования в современной науке*, 3(18), 27-32.

³ Ашуров, О., & Усмонов, А. (2024). Кибержиноятлар, уларнинг жамият орасида кенг тарқалган турлари ва уларга қарши курашишнинг ўзига хос жиҳатлари. *Академические исследования в современной науке*, 3(17), 89-93.






boradi. Jinoyatlarni kim yoki kimlar sodir qiladi degan savolga esa, biz yuqorida takidlab o'tgan sohalarda faoliyat yuritmaydigan, o'z ustida ishlamaydigan yoki bo'lmasam moddiy jihatdan yetarli darajada ta'minlangan oilalarning farzandlari yoxud moddiy jihatdan qiynalgan oilalar tomonidan turli darajadagi jinoyatlar sodir qilinmoqda ba'zi jinoyatlar oilaviy tarzda sodir qilinayotgani esa juda achinarli holat. Bugungi kunda tadbirkorlikka keng imkoniyatlar yaratib berilayotgan bir davrda giyohvandlik vositalari savdosi ham avjiga chiqib bormoqda. Hukumatimiz tomonidan har bir jamiyatimiz a'zolariga halol rizq bilan mehnat qilish uchun yetarli imkoniyatlar yaratib berishga harakat qilinayotgan bir davrda, turli narkosindikatlarni hamda narkobozorlar o'rtasida yaqin aloqalar o'rnatilib narkobiznes transmilliy xususiyat kasb etib bormoqda.

Bugungi kunda turli xalqaro tashkilotlarning bergan ma'lumotlariga ko'ra yer yuzi aholisining deyarli 500 mlndan ortiq qismi giyohvandlik vositalarini va psixotrop moddalarni iste'mol qilib kelmoqda. O'zbekistonda esa 5 mingga yaqin fuqaro giyohvandlikka qaram kishilar hisobida turadi. Giyohvandlikka qaram kishilar hisobida turgan fuqarolarning 31 foizini 20-40 yoshdagilar tashkil etadi. Bundan tashqari, ularning 1,8 foizida OIV infeksiyasi aniqlangan. Barchamizga ma'lumki giyohvandlik insoniyatni jismoniy va ruhiy jihatdan tubanlikka eltuvchi, aql-idrokdan mahrum etib, bu dunyoda ham u dunyoda ham insonning xorligiga yetaklovchi ofatdir. Giyohvand moddalar insonni ayni kuch-quvvatga to'lgan davrida alkogolga nisbatan 4- 6 barobar tezroq halokatga uchratadi.

Ba'zi olimlarning e'trof etishiga qaraganda giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalari savdosi avj olgan ma'mlakatlarda ushbu jirkanch illatga ruju qo'yish quyidagi asoratlarni keltirib chiqarmoqda:

1. Iqtisodiy asoratlar: katta pul sarflanishi, daromadlarning yo'qolishi, ishni yo'qotish, qarzga botish, talonchilik va tilanchilik;
2. Ma'naviy asoratlar: oilalarning buzilishi, befarqlik, tushkunlik, norozilik, xudbinlik, mahdudlik;
3. Jinoiy asoratlar: o'g'rilik, bosqinchilik, odam o'ldirish, urush va terror;
4. Tibbiy asoratlari: - odamning ongi xiralashadi, his-tuyg'ulari keskin ravishda o'zgaradi, fikrlari chalkashib ketadi; - ko'ziga har xil qo'rqinchli narsalar ko'rinadi, qattiq qo'rqadi; - jinsiy mayl yo'qoladi va mijoz keskin susayadi; - giyohvand moddalarni in'ektsiya yo'li orqali qabul qilinishi oqibatida





OITS bilan kasallanish darajasi ortadi⁴.

Yuqoridagi dunyoviy asoratlardan tashqari musulmon kishining giyohvandlik vositalarini iste'mol qilishi muqaddas islom dinimizda ham qattiq qoralanadi. Xususan xadisi sharifda keltirilishicha "Payg'ambar (s.a.v.) har qanday mast qiluvchi, badanni bo'shashtiruvchi va susaytiruvchi narsalarni iste'mol qilishdan qaytardilar" deyilgan (Ahmad va Abu Dovud rivoyati). Mazkur hadisi sharif har qanday turdagi giyohvandlik harom ekaniga dalolat qiladi.

Statistik ma'lumotlarga qaraganda bahor va kuz oylarida giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni g'ayriqonuniy iste'mol qiluvchi shaxslarda kasallik asoratlari kuchaydi va bu davrda mazkur moddalar savdosi avjiga chiqadi. Giyohvandlik vositalarining qonunga xilof muomalasiga oid jinoyat ishlari tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur turdagi jinoiy qilmishlarning 60 foizi aynan fevral-aprel, 25 foizi sentyabr-noyabr, 15 foizi esa, boshqa davrlarda sodir etiladi.

Hozirgi kunda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 1987- yil 7-dekabrdagi qaroriga asosan, 26-iyun «Xalqaro giyohvandlikka qarshi kurash kuni» deb e'lon qilingan va mazkur tashkilot tomonidan "Narkotik moddalar to'g'risida"gi, "Psixotrop moddalar" hamda "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi qurash to'g'risida"gi konventsiyalar qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasida ham xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan normalarini tan olgan holda 1999-yil 19-avgust kuni O'zbekiston Respublikasining "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida" Qonuni qabul qilingan⁴. Mazkur qonunga asosan yurtimizda giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga chek qo'yishga qaratilgan bir qator tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Joriy yilning dastlabki 6 oyida respublikamiz hududida 368 kg giyohvandlik vositasi aylanmasiga chek qo'yildi. Xususan, Toshkent viloyati hududida giyohvandlikning har qanday turiga qarshi keskin va murosasiz kurashish va bu orqali jamiyatda sog'lom muhitni yana-da yaxshilashga qaratilgan 19731 ta maxsus profilaktik tadbirlar o'tkazildi va "Xavfsiz hudud" "Qora dori" tezkor profilaktik tadbirlarini o'tkazish jarayonida aniqlangan alkogolni suiiste'mol qiluvchi yoki giyohvandlik vositalarini, psixotrop moddalar va aql-iroda faoliyatiga ta'sir etuvchi boshqa moddalarni iste'mol qiluvchi 6835 nafar shaxslar aniqlandi⁵. Bu jarayonda ichki ishlar organlarining bir qator xodimlari jonkuyarlik ko'rsatishdi va giyohvandlik vositalarining noqonuniy

⁴ Ашуров, О. (2024). Ички ишлар органлари тезкор бўлинмалари томонидан фирибгарлик жиноятига қарши курашишда тезкор-қидирув тавсифининг илмий таҳлилини аҳамияти. *Журнал академических исследований нового Узбекистана*, 1(5), 184-191.





aylanmasiga chek qoyishdi. Masalan ana shunday fidoiy xodimlardan Shahrixon tumani IIB HPB profilaktika inspektorlari leytenant A.Valiyev katta leytenant N.Nuriddinov tomonidan “Qora dori-2023” doirasida ko‘rilgan choratadbirlar natijasida giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasi bilan bog‘liq jinoyat aniqlangan va fosh etilgan⁵.

Xalqimizning erkin va farovon hayot kechirishi va bugungi kunidan rozi bo‘lishi uchun davlatimiz rahbari tashabbusi bilan bir qator vazirlik va idoralar tomonidan tunukun mehnat qilinayotgan bir vaqtda ayrim irodasi sust o‘smirlarimiz giyohvandlik balosiga muhtalo bo‘layotgani barchamizni tashvishga soladi. „Asr vabosi“ deb atalayotgan bu- jirkanch illatning yoshlar orasida keng avj olayotganligi yanada ayanchli holat hisoblanadi buning oqibatida qanchadan qancha tinch-totuv yashayotgan oilalarni barbod bo‘lmoqda va qanchadan qancha bolalar etim qolmoqda va yana qanchadan qancha begunoh go‘daklar nuqson bilan dunyoga kelmoqda. Shuningdek, ushbu jirkanch illat giyohvandlik OITS, gepatit, sil kabi og‘ir va bedavo xastaliklarning tarqalishiga ham sabab bo‘lamoqda. So‘nggi yillarda giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarga qaram shaxslar yoshining quyi chegarasi 17-30 yoshlar o‘rtasida kuzatilmoqda va mazkur turdagi giyohvandlik vositalarini iste‘mol qilishga asosiy sabablardan biri sifatida esa shaxsning og‘ir oilaviy sharoitlarda tarbiyalangani, xo‘rlash, tahqirlash, shafqatsiz muomalaga duchor bo‘lganligi e‘tiborsizlik yoki xaddan tashqari ortiqcha e‘tibor qaratish asosiy sababi qilib ko‘rsatilmoqda. Bunday sharoitlarda tarbiyalanayotgan yoshlar esa narkotik vositalar bilan savdo qiluvchi „uddaburon tadbirkorlar“ga yaxshigina „o‘lja“bo‘ladi.

Bugungi globallashuv jarayonida turli fan-texnika, iqtisod sohaslarida keskin o‘zgarishlar ro‘y bermoqda va bu o‘zgarishlar insonlarning zamon talablariga mos ravishda bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishlariga, o‘z ustilarida yanada ko‘proq ishlashlariga undamoqda. Kimdir savdo sohasida, kimdir IT sohasida, kimdir fan-texnika sohasida va yana kimlardir davlat xizmatlarida turli yo‘nalishlarda o‘z faoliyatlarini olib bormoqdalar. Barchamizga malumki qayerda rivojlanish bolsa, o‘sha yerda jinoyatchilik ham rivojlanib boradi. Jinoyatlarni kim yoki kimlar sodir qiladi degan savolga esa, biz yuqorida takidlab o‘tgan sohalarda faoliyat yuritmaydigan, o‘z ustida ishlamaydigan yoki bo‘lmasam moddiy jihatdan yetarli darajada taminlangan oilalarning farzandlari yoxud moddiy jihatdan qiynalgan oilalar tomonidan turli

⁵ Якубов, Х., & Рахмонжонов, Х. (2022). Diniy ekstremizm va terrorizm tahdidi. *Общество и инновации*, 3(2/S), 246-251.





darajadagi jinoyatlar sodir qilinmoqda bazi jinoyatlar oilaviy tarzda sodir qilinayotgani esa juda achinarli holat. Bugungi kunda tadbirkorlikka keng imkoniyatlar yaratib berilayotgan bir davrda giyohvandlik vositalari savdosi ham avjiga chiqib bormoqda. Hukumatimiz tomonidan har bir jamiyatimiz azolariga halol rizq bilan mehnat qilish uchun yetarli imkoniyatlar yaratib berishga harakat qilinayotgan bir davrda, turli narkosindikatlarni hamda narkobozorlar o'rtasida yaqin aloqalar o'rnatilib narkobiznes transmilliy xususiyat kasb etib bormoqda⁶.

Bugungi kunda turli xalqaro tashkilotlarning bergan malumotlariga ko'ra yer yuzi aholisining deyarli 500 mlndan ortiq qismi giyohvandlik vositalarini va psixotrop moddalarni iste'mol qilib kelmoqda.1 O'zbekistonda esa 5 mingga yaqin fuqaro giyohvandlikka qaram kishilar hisobida turadi. Giyohvandlikka qaram kishilar hisobida turgan fuqarolarning 31 foizini 20-40 yoshdagilar tashkil etadi. Bundan tashqari, ularning 1,8 foizida OIV infeksiyasi aniqlangan. . Barchamizga malumki giyohvandlik insoniyatni jismoniy va ruhiy jihatdan tubanlikka eltuvchi, aql-idrokdan mahrum etib, bu dunyoda ham u dunyoda ham insonning xorligiga yetaklovchi ofatdir. Giyohvand moddalar insonni ayni kuch-quvvatga to'lgan davrida alkogolga nisbatan 46 barobar tezroq halokatga uchratadi. Bazi olimlarning e'trof etishiga qaraganda giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalari savdosi avj olgan mamlakatlarda ushbu jirkanch illatga ruju qo'yish quyidagi asoratlarni keltirib chiqarmoqda:

1. Iqtisodiy asoratlar: katta pul sarflanishi, daromadlarning yo'qolishi, ishni yo'qotish, qarzga botish, talonchilik va tilanchilik;

2. Ma 'naviy asoratlar: oilalarning buzilishi, befarqlik, tushkunlik, norozilik, xudbinlik, mahdudlik;

3. Jinoiy asoratlar: o'g'rilik, bosqinchilik, odam o'ldirish, urush va terror;

4. Tibbiy asoratlari:

- odamning ongi xiralashadi, his-tuyg'ulari keskin ravishda o'zgaradi, fikrlari chalkashib ketadi;

- ko'ziga har xil qo'rqinchli narsalar ko'rinadi, qattiq qo'rqadi;

- jinsiy mayl yo'qoladi va mijoz keskin susayadi;

- giyohvand moddalarni in'ektsiya yo'li orqali qabul qilinishi oqibatida OITS bilan kasallanish darajasi ortadi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida sintetik va yarim sintetik giyohvandlik vositalarining savdosi va iste'molining kengayishi bunday

⁶ Машарипов, Т. Э. (2024). Текшириш учун харид қилиш ва назорат остида олиш тадбирларининг тушунчаси ва аҳамияти. *Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук*, 4(1), 70-76.





gijohvandlik vositalarini ishlab chiqarish va ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan prekursorlar vaboshqa moddalarni noqonuniy muomalaga olib kiruvchi jinoiy guruhlar faolligining kuchayishi bilan bevosita bog'liqdir⁷.

Qonunchiligimizga muvofiq, kimyo va tibbiyot sanoatida ishlatiladigan dori vositalari va farmatsevtika sohasida ishlatiladigan mahsulotlari mamlakatimizda qonuniy ravishda muomalada bo'lib, mazkur qonuniy tovarlar niqobi ostida bojxonanazoratidan yashirib, jinoiy harakatlarni qonuniy moliyaviy-xo'jalik operatsiyalari sifatida yashirish yo'llar bilan olib kirish ehtimollari ham yo'q emas. Buning ustiga, qonunchilikda rasman prekursorlar sifatida tan olinmagan, mazkur sintetik moddalar ishlab chiqarishda foydalaniladigan moddalar mavjud bo'lib, ularning doimiy ravishda yangilash, ro'yxatga kiritib borish lozim. Shu munosabat bilan, prekursorlarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish sohasida tezkor-qidiruv ishlarini tashkil etish va taktikasiga yangicha yondashuvlarni, shu bilan, o'rganish va baholash orqali ishlab chiqish zarurligimasalasini ko'rib chiqish zarur. Masalan, heroin ishlab chiqarishda sirka angidrid, atseton, etil efir, toluol, xlorid kislota ishlatiladi. Kokain tayyorlashda esa kaliy permanganat va amfetamin tipidagi stimulyatorlarni — efedrin va psevdofedrin, 1-fenol-2-propanon, allilbenzol, benzaldegid, etanamin va boshqa ko'plab moddalarni kimyoviy sintez qilishda bevosita foydalanish orqali olinadi.


Shu o'rinda mazkur faoliyat ustidan bevosita nazoratni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 30-apreldagi 229-son qarori bilan Narkotik moddalar ustidan nazorat qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Davlat komissiyasi tashkil etilgan.

Narkotik moddalar ustidan nazorat qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Davlat komissiyasi narkotik moddalarning noqonuniy muomalada bo'lishiga qarshi kurashni muvofiqlashtirish, ham milliy, ham mintaqalar darajasida narkotik moddalar tarqalishi oldini olishning samarali chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, narkotik moddalar ustidan nazorat qilish yuzasidan xalqaro majburiyatlarni bajarish masalalari bo'yicha idoralararo organ hisoblanadi⁸.

Komissiyaga quyidagi asosiy vazifalar va funksiyalar yuklatiladi:

⁷ Ашуров, О., & Юлибоев, С. (2024). Ички ишлар органлари томонидан экстремизм билан боғлиқ жиноятларни олдини олиш фаолиятини такомиллаштириш мезонлари. *Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления*, 1(7), 123-130.

⁸ Якубов, Х.Ш. (2023). Тезкор-қидирув психологиясининг аҳамияти. *образование наука и инновационные идеи в мире*, 25(2), 38-44.





- narkotik moddalar ustidan nazorat qilish bo'yicha umumdavlat dasturini ishlab chiqish va uni amalga oshirishga ko'maklashish;

- barcha davlat organlari, jamoat tashkilotlari, mehnat jamoalari va fuqarolarning sa'y- harakatlarini narkotik vositalarning noqonuniy muomalada bo'lishiga qarshi kurash olib borishning kechiktirib bo'lmaydigan vazifalarini hal etishga birlashtirish va jamlash va mana shu maqsadlarda jamiyat va davlatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy-tarbiyaviy imkoniyatlaridan keng foydalanish;

- doimiy ravishda tegishli hududda, zaruriyat bo'lganda esa – alohida joylardan narkotik vositalarning noqonuniy muomalada bo'lishiga qarshi kurashning ahvolini kompleks baholash, uning yomonlashuviga munosabat bildirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish;

- narkotik vositalar ustidan nazorat qilish bo'yicha respublika operativ axborot markazini tashkil etishga va uning faoliyatini takomillashtirishga, O'zbekiston Respublikasining manfaatdor vazirliklari va idoralari bilan, shuningdek, MDH qatnashchisi bo'lgan mamlakatlar va boshqa xorijiy davlatlarning huquqni muhofaza qiluvchi organlari bilan axborotni erkin va to'siqsiz ayirboshlashni ta'minlash uchun markaz bilan narkotik moddalar ustidan nazoratni amalga oshiruvchi tashkilotlar o'rtasida yagona tarmoq tashkil etishga ko'maklashish;

- narkotik moddalar ustidan nazorat qilish bilan bog'liq bo'lgan barcha tashkilotlarga xizmatlar ko'rsatish uchun respublika sud ekspertizasi xizmati, kriminalistik laboratoriyani tashkil etishga va uning faoliyatini takomillashtirishga ko'maklashish;

- narkotik moddalar ustidan nazorat qilish masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlarning yo'nalishini belgilash va bu tadqiqotlarni muvofiqlashtirish;

- narkotik moddalar ustidan nazorat qilish bo'yicha dasturlarni mablag' bilanta'minlash uchun mablag'larni jalb etish ishida davlat, jamoat, muassasalar va korxonalarning o'zaro hamkorligini ta'minlash;

- huquqni muhofaza qilish organlarini malakali xodimlar bilan mustahkamlash tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish. Bu organlarga moddiy-texnikaviy va moliyaviy yordam ko'rsatish, ularning ish amaliyotiga narkotik moddalarni izlash, topish va identifikatsiyalash bo'yicha ilmiy yutuqlar va ilg'or tajribani joriy etish;

- narkotik moddalarning respublika orqali MDH mamlakatlariga va G'arb davlatlariga noqonuniy olib o'tiladigan yo'llarni to'sib qo'yish, mahalliy





xom ashyodan tayyorlanadigan narkotik moddalar yetkazib berilishiga barham berish bo'yicha birgalikdagi chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasining narkotik moddalar ustidan nazorat qilish bilan bog'liq tashkilotlarining xorijiy mamlakatlarning tegishli tashkilotlari bilan hamkorligini ta'minlash;

- BMTning 1961, 1971 va 1988-yillardagi Konvensiyalariga va boshqa xalqaro bitimlarga muvofiq xalqaro va milliy nazorat ostiga olinishi kerak bo'lgan narkotik vositalar, boshqa moddalar ro'yxatini tasdiqlash, ushbu ro'yxatlar bo'yicharasmiy tushuntirishlar berish;

- noqonuniy muomalaga chiqarish ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka olib keladigan xalqaro va milliy nazoratda bo'lgan narkotik vositalar va boshqa moddalar hajmlarini aniqlash;

- tarkibida narkotik vositalar mavjud bo'lgan dori-darmonlar va preparatlarni ishlab chiqarish, saqlash, transportda tashish va qonuniy foydalanishni tartibga soluvchi huquqiy va nazorat-texnik qoidalarini ishlab chiqish, ularni qo'llashga vakolat berilgan davlat organlari tomonidan ularning qo'llanishi ustidan nazorat qilishni tashkil etish⁹;

- narkotik vositalarning noqonuniy muomalada bo'lishiga qarshi kurash olib borish chora-tadbirlarini amalga oshirishga yo'naltiriladigan moliyaviy mablag'lar va moddiy resurslarni taqsimlash;

- narkotik moddalar muomalasining turli jihatlariga tegishli bo'lgan O'zbekiston Respublikasi qonunlari va boshqa normativ hujjatlar loyihalari bo'yicha xulosalarni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taqdim etish;

- O'zbekiston Respublikasi hududida va uning tashqarisida narkotik moddalar ustidan nazorat qilish masalalari bo'yicha hamkorlik dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda qatnashish;

- narkotik vositalarning noqonuniy muomalada bo'lishiga qarshi kurash olib borish masalalari bo'yicha MDHga kiruvchi davlatlar bilan bitimlar loyihalariga, shuningdek, boshqa xorijiy mamlakatlar bilan bitimlar loyihalariga takliflar tayyorlanishini ta'minlash;

- narkotik moddalarning noqonuniy muomalada bo'lishiga va ularni suiiste'mol qilishga qarshi kurash olib borish sohasida xalqaro bitimlarda nazarda tutilgan O'zbekistonning majburiyatlari vazirliklar va idoralar tomonidan bajarilishi ustidan nazoratni ta'minlash;

⁹ Машарипов, Т.Э. Коррупция билан боғлиқ жиноятларнинг олдини олиш бўйича ўтказиладиган тезкор-қидирув тадбирларини ташкил этиш.





- narkotik moddalar ustidan nazorat qilish masalalari bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilotlar faoliyatida belgilangan tartibda qatnashish;
- narkotik moddalar ustidan nazorat qilish bo'yicha ish tajribasini o'rganish uchun tegishli nomzodlarni tanlash va ularni xorijiy mamlakatlarga yuborish;
- narkotik vositalarning noqonuniy muomalada bo'lishiga qarshi kurash olib borish bo'yicha tajriba almashish uchun milliy va xalqaro seminarlar, konferensiyalar va simpoziumlar tashkil etish.

Komissiyaga O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri – Komissiya raisiboshchilik qiladi.

Komissiyani o'rinbosari Milliy markazning direktori hisoblanadi. Komissiya tarkibiga ichki ishlar organlari, davlat xavfsizlik xizmati, bojxona organlari, sog'liqni saqlash, xalq ta'limi va boshqa davlat organlari rahbarlari kiradilar.

Xitoy Xalq Respublikasi Jinoyat qonunchiligini ko'radigan bo'lsak, bu davlatning Kuba, Vetnam, KXDR singari sotsializm va kommunizm g'oyalaridan voz kechmagani va uning qonunchiligi sotsializm huquqi asosida rivojlanayotganini ta'kidlash zarur.

XXRning birinchi qabul qilingan Jinoyat kodeksi 1949-yildan kuchga kirgan. Shundan so'ng 1997-yilga kelib yangi tahrirdagi jinoyat kodeksi qabul qilingan.


XXR Jinoyat kodeksida ham xalqaro xarakterga ega bo'lgan kontrabanda jinoyati uchun bir qator moddalar belgilangan, jumladan, 191-, 240-, 347-357-moddalari aynan giyohvandlik vositalari bilan bog'liq jinoyatlar uchun javobgarlik belgilab qo'yilgan. Jumladan:

- 347-modda. Giyohvandlik vositalarini kontrabanda qilish, sotish, tashish va ishlab chiqarish, ularning miqdoridan qat'iy nazar, jinoyat deb hisoblanadi va ushbu Kodeksga muvofiq jazoga tortiladi.

- 349-modda. Giyohvandlik vositalarini kontrabanda qilish, sotish, tashish va ishlab chiqarish bilan bog'liq jinoiy elementlarni yashirish, yashirishda yordam berish, topshirish, saqlash.

Ushbu moddaning 3-bandida Giyohvandlik vositalari bilan bog'liq jinoiy unsurlarni yashirgan davlat organlarining mansabdor shaxslari eng og'ir jazoni o'taydilar deb belgilab qo'yilgan.

- 350-modda. Sirka kislotasi angidrid, sulfat efir, triklorometan yoki dori ishlab chiqarish uchun xom ashyo sifatida ishlatiladigan boshqa moddalar yoki davlat qoidalarini buzgan holda, yuqorida aytib o'tilgan moddalarni noqonuniy





tashish, mamlakat hududida noqonuniy savdosi uchun javobgarlik belgilangan.

- 357-moddasining 2-qismida Giyohvandlik vositalari miqdori kontrabanda, sotilgan, tashilgan, ishlab chiqarilgan yoki olib o'tilgan dorilarning haqiqiy miqdoriasosida aniqlanadi va kimyoviy tozalangandan keyingi haqiqiy vazni inobatga olinmaydi deb belgilab qo'yilgan⁸.

Xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki kontrabanda bilan bog'liq jinoyatlar, xususan giyohvandlik vositalari ularning prekursorlari, psixotrop moddalar bilan bog'liq jinoyatlardan tashqari O'zbekiston Respublikasi balki butun dunyo mamlakatlari uchun doimiy ravishda jiddiy muammo bo'lib kelgan¹⁰.

Hozirgi kunda mamlakatimizda giyohvandlik vositalarini o'stirish va sotishga qaraganda psixotrop moddalar va ularning analoglarini dorixonalaridan olish hollari yoshlar o'rtasida keng tarqalmoqda shu sababli biz ushbu turdagi psixotrop moddalar va ularning analoglarini noqonuniy aylanmasiga chek qo'yish uchun quyidagi takliflarni bermoqchimiz:

1. Har bir hududdagi dorixonalarda psixotrop moddalar va ularning analoglarini sotilish noqonuniy sotilish holatlarini hududiy profilaktikka inspektorlari tomonidan qat'iy nazoratga olish;

2. Bemorlarga tarkibida psixotrop moddalar va ularning analoglari bo'lgan dori vositalarini har bir hududdagi shifoxonalar, diagnostik klinikalarda faoliyat yuritayotgan shifokorlarning maxsus retsepti asosida berish;

3. Har bir hududdagi shifoxonalar va diagnostik klinikalarda faoliyat yuritayotgan shifokorlar tomonidan kimga qancha miqdorda tarkibida psixotrop moddalar va ularning analoglari bo'lgan dori vositalarini sotib olib, davolanish uchun maxsus retsept yozib berganligini kunlik yuritib borish va har oyning ohirgi kunligida shifoxonalar va diagnostik klinika rahbarlari tomonidan hududiy ichki ishlar organlariga hisobot topshirish;

4. Har bir dorixonalarda tarkibida psixotrop moddalar va ularning analoglari bo'lgan dori vositalarini qaysi shifokorning maxsus retsepti asosida qancha miqdorda sotganligi hisobini kunlik yuritib borish va har oyning birinchi 3 kunligida dorixona rahbarlari tomonidan hududiy ichki ishlar organlariga hisobot topshirish. Bizning fikrimizcha yuqorida bergan takliflarimiz albatta o'zining ijobiy natijasini beradi va jamiyatimizda giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarining noqonuniy aylanmasiga chek qo'yishga yaxshigina

¹⁰ Ашуров, О., & Исмоилов, А. (2024). Экстремизм ва радикализм ғояларига қарши курашишда ёшларда мафкуравий иммунитетни шакллантириш мезонлари. *Development of pedagogical technologies in modern sciences*, 3(7), 59-69.





imkoniyat yaratib beradi¹¹.

XULOSA

Bugungi kunda yurtimizda „Barcha sayi harakatlar inson qadri uchun” deb nomlangan ezgu maqsad yo`lida harakat qilinayotgan davrda fuqarolarimizning mana shunday jirkanch illatga ruju qo`yishi yuqorida ta`kidlab o`tganimizdek bir qator salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligi milliy va xalqaro mutaxassis olimlarning tadqiqotlari natijasidan ham ayon bo`ldi. Hozirgi kunda jamiyatimizda huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish va jinoyatchilikka qarshi kurashish faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vazifasi sifatida baholanib qolinayotgan holatlar ham uchrab turibdi. Bizning fikrimizcha, huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish va jinoyatchilikka qarshi kurashish nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organlarning, balki jamoat tashkilotlari, fuqarolarni o`zini o`zi boshqarish organlari, oila va ta`lim muassasalari bilan hamkorlikdagi faoliyati hisoblanadi . Shu sababli ham jamiyatimizda yoshlar o`rtasida giyohvandlikka qarshi kurashni yangi bosqichga yangicha usullarda amalga oshirishimiz darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:


1. Якубов, Х. Ш. (2023). Психологические особенности оперативно-розыскного мероприятия «опрос». образование наука и инновационные идеи в мире, 25(2), 45-48.
2. Ashurov, O. (2024). Voyaga yetmaganlar orasida giyohvandlikka qarshi kurashishning dolzarb ahamiyati. Академические исследования в современной науке, 3(18), 27-32.
3. Ашуров, О., & Усмонов, А. (2024). Кибержиноятлар, уларнинг жамият орасида кенг тарқалган турлари ва уларга қарши курашишнинг ўзига хос жиҳатлари. Академические исследования в современной науке, 3(17), 89-93.
4. Ашуров, О. (2024). Ички ишлар органлари тезкор бўлинмалари томонидан фирибгарлик жиноятига қарши курашишда тезкор-қидирув тавсифининг илмий таҳлилини аҳамияти. Журнал академических исследований нового Узбекистана, 1(5), 184-191.
5. Якубов, Х., & Рахмонжонов, Х. (2022). Diniy ekstremizm va terrorizm tahdidi. Общество и инновации, 3(2/S), 246-251.

¹¹ Ashurov, O. (2024). Voyaga yetmaganlar orasida giyohvandlikka qarshi kurashishning dolzarb ahamiyati. Академические исследования в современной науке, 3(18), 27-32.





6. Машарипов, Т. Э. (2024). Текшириш учун харид қилиш ва назорат остида олиш тадбирларининг тушунчаси ва аҳамияти. Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук, 4(1), 70-76.
7. Ашуров, О., & Юлибоев, С. (2024). Ички ишлар органлари томонидан экстремизм билан боғлиқ жиноятларни олдини олиш фаолиятини такомиллаштириш мезонлари. Центральноеазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления, 1(7), 123-130.
8. Якубов, Х. Ш. (2023). Тезкор-қидирув психологиясининг аҳамияти. образование наука и инновационные идеи в мире, 25(2), 38-44.
9. Машарипов, Т. Э. Коррупция билан боғлиқ жиноятларнинг олдини олиш бўйича ўтказиладиган тезкор-қидирув тадбирларини ташкил этиш.
10. Ашуров, О., & Исмоилов, А. (2024). Экстремизм ва радикализм ғояларига қарши курашишда ёшларда мафкуравий иммунитетни шакллантириш мезонлари. Development of pedagogical technologies in modern sciences, 3(7), 59-69.
11. Ashurov, O. (2024). Voyaga yetmaganlar orasida giyohvandlikka qarshi kurashishning dolzarb ahamiyati. Академические исследования в современной науке, 3(18), 27-32.
12. Қушбоқов Ш. Жазони ижро этиш муассасалари фаолиятида тадбиркорликнинг ўрни //Международная конференция академических наук. – 2022. – Т. 1. – №. 27. – С. 16-20.
13. Қушбоқов Ш., Самадов М. Ички ишлар органлари томонидан ҳуқуқбузарликлар профилактикасини амалга оширишда маъмурий ҳуқуқбузарликлар тўғрисидаги ишларни ўрни //Science and innovation in the education system. – 2023. – Т. 2. – №. 13. – С. 73-76.
14. Алтмишев Т., Қушбоқов Ш. Жазони ижро этиш муассасаларида маҳкумларнинг сайловга оид ҳуқуқларини таъминлаш //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2023. – Т. 3. – №. Special Issue. – С. 112-114.
15. Qushboqov S. Jazoni ijro etish muassasalarining yuridik shaxs sifatidagi tushunchasini yoritishda nazariy tahlil //Центральноеазиатский журнал образования и инноваций. – 2023. – Т. 2. – №. 2 Part 2. – С. 49-52.
16. Қушбоқов Ш., Турниёзов Ж. Ички ишлар органлари ходимларининг касбий маданият ва хизмат интизоми ҳуқуқий тартибга солиш истиқболи //Development of pedagogical technologies in modern sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 49-55.





17. Қушбоқов Ш. Юртимизда тадбиркорликни жазони ижро этиш тизимидаги истиқболи //Models and methods in modern science. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 114-117.
18. Қушбоқов Ш. Жазони ижро этиш муассасаларининг юридик шахс сифатидаги тушунчасининг таснифи //Development of pedagogical technologies in modern sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 58-63.
19. Qushboqov S., Mamatova D. yangi O'zbekistonda huquqbuzarlik profilaktikasining o'rni //current approaches and new research in modern sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 37-39.
20. Охунов, З., & Қушбоқов, Ш. (2022). Талабалар томонидан содир этиладиган ҳуқуқбузарликларни олдини олишга оид айрим мулоҳазалар. Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук, 2(11), 34-39.
21. Qushboqov S., Zamonov X. Shaxsning hayoti va sogligiga qarshi jinoyatlarning oldini olishning oziga xos xususiyatlari //Инновационные исследования в науке. – 2024. – Т. 3. – №. 1. – С. 79-84.
22. Охунов З., Қушбоқов Ш Т. Т. С. Э. Ҳуқуқбузарликларни олдини олишга оид айрим мулоҳазалар //Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 11. – С. 34-39.
23. Qushboqov S., Tilabov S. Kiber jinoyatlardan saqlanishda umumiy profilaktikani o'rni //Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 18. – С. 67-69.
24. Qushboqov S. X., Usipbekov N. J. Yurtimizda mahkumlarni ozodlikka tayyorlashda amalga oshirilgan islohotlar va ulardan kutilayotgan natijalar //Models and methods in modern science. – 2023. – Т. 2. – №. 12. – С. 179-182.

